

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701309**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Quyidagi qaysi gaplarda fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashgan?
1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.
2. Ko'rpaning guldor qavig'i hammamni qiziqitirdi.
3. O'ynoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayfiyatini tarqatdi.
4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rman qo'zg'alib qo'ydi.
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 2, 3, 4
2. Taqillaydi eshik nogahon,
-Kimsan?- Deyman tugab sabotim,
-Ochgil, -deydi. -Bu -men, qadrdon,
Bilmoq bo'lsang-bardoshdir otim.
Ushbu she'riy parchada nechta egasi yashirilgan soda fe'l kesimli gap mavjud?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
3. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?
A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*
B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbuv qilmaydi.*
C) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*
D) *O'z Vatanga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
4. Nuqtalar o'rnida faqat bo'g'iz undoshi ishtirok etadigan so'zlar qatorini toping.
A) *so...il, l...tiro, zo...id, mu...tasham*
B) *ma...luq, mu...arrir, ishta...a, i...los*
C) *mu...abbat, mu...ojir, ma...sulot, sa...ovat*
D) *sa...ro, ra...mat, mu...tasham, mu...lat*
5. **Jadval** so'zidagi 1 undoshi qaysi xususiyatiga ko'ra boshqa undoshlarning hech qaysisi bilan bir umumiy guruhga mansub bo'la olmaydi?
A) *hosil bo'lish o'rniga ko'ra*
B) *jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra*
C) *hosil bo'lish usuliga ko'ra*
D) *shovqinli yoki sonorligiga ko'ra*
6. Quyida keltirilgan qaysi parchada gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan bo'lakning fonetik o'zgarishga uchrashi kuzatiladi?
A) *Tarixingdir ming asrlar ichro pinhon, o'zbegim.*
B) *Ey mungli xotin, sen kimsan! Ey g'amli ona, nechun mungdan ayrilmaysan?*
C) *Mustaqillik! Asrayman seni Kerak bo'sa xayotim bilan Ulug'layman vasling toabad She'r-u g'azal, bayotim bilan!*
D) *Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq-mening o'limim Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdur.*
7. Insonlar istaydiki, yer yuzi gulbog'ining musaffo havosidan hamma bo'lsin bahramand.
Ushbu gap haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
A) *Ergash gapning ham, bosh gapning ham egasi bir xil so'z turkumiga oid.*
B) *To'diruvchi ergash gapli qo'shma gap hisoblanadi.*
C) *Qaratqich aniqlovchilar faqat qaratqich aniqlovchiga tobelangan.*
D) *Ergash gap qismida barcha gap bo'laklari kesimga bevosita bog'langan.*
8. Kal ketaverdi, ketaverdi, charchab, suvsab bir daraxt soyasida yotib uxladi. (Ertakdan)
Ushbu gap tarkibida asosi ham omonimlik, ham paronimlik xususiyatiga ega so'z necha o'rinda qatnashgan?
A) 3 B) 1 C) 2 D) 4
9. Qaysi gapda fe'lning vazifa shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan nisbat qo'shimchasini olgan fe'l qatnashgan?
A) *Menga shuncha yaxshilik qildingiz, necha bor meni yomon yo'ldan qaytardingiz.*
B) *Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'ildi qorong'i jarga.*
C) *Tuproq uyumidan sakrab o'tgan. Alijon qaytarma etigiga yopishgan changni jahl bilan qoqdi.*
D) *Qishloqdan chiqarkan, boy tog'asidan albatta xizmat so'rashni onasi uqtirgan edi.*
10. Quyidagi gapda ma'no ko'chirishining qaysi tur(lar)i qatnashgan?
Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.
A) *faqat metafora*
B) *metonimiya, metafora*
C) *sinekdoxa, metafora*
D) *vazifadoshlik, metonimiya*
11. Berilgan so'zlardan nechtasi tub ravishlar sanaladi?
atay, birin-ketin, bevaqt, birdan, olg'a, vaqtincha, to'satdan, u yerga, birdaniga, ekakchasisa
A) 4tasi B) 5tasi C) 6tasi D) 7tasi
12. Qaysi gapda yordamchi so'zlarning barchasiga oid birliklar qo'langan?
A) *Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin qaytadan yangi tovush parvoz qildi.*
B) *San'atkor kishilarga ta'sir etish uchun izlanishi va ijod qilishi kerak.*
C) *Faqat siz o'ksinmang, chunki dunyoda faqat siz uchun yashayapman.*
D) *Tilning mana shu yetukligi uning go'zalligini va undan foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi.*
13. Qaysi gapda ortirma nisbatdan tashqari barcha nisbat shakllaridagi fe'llar ishtirok etgan?
A) *To'rt tomoni hujralar bilan o'ralgan sahna o'rtasidagi sadaqayrag'och shoxlarida chumchuqlar chirqillashib, ko'klamni olqishlaydi, allaqayoqlardan qaldirg'ochlar o'qday otilib kelib, hovli ichiga kirib ketadi.*
B) *Vatan haqidagi jozibador qo'shiqlar el-elatlarni birlashtiradi, ularni tinch-totuv va osoyishta yashashga, Vatanni ko'z qarochig'iday asrashga da'vat etadi.*
C) *Gullar ishq haqida kuylasalar, qushlar sadoqat haqida chug'urlashib bahs qilishardilar, gullar Nargisga tasalli bersalar, bulbullar chax-chaxlab, Bamburni Gullar vodiysiga chaqirardilar.*
D) *Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir, quyosh lovullab qizdiradiyu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi.*
14. Keltirilgan parchada ravish turkumiga oid yasama so'z necha o'rinda qodlangan?
U bugun juda charchagan edi, kechki taomda ham arang o'tirdi, yostiqqa boshini qo'ydi-yu, darhol uyquga ketdi. Bir mahal endigina orom olib uxlayotganda kimdir hovli eshigini ochib ohista kirib keldi, uning bu ovozdand so'ng uyqusi butunlay qochdi, boyagi uyqu istagi uni bir zumda tark etdi.
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
15. Quyida berilgan gaplarning qaysilari qo'shma gap sanaladi?
1. Bularning bari tush bo'lsa kerak: nima bo'lganini anglay olmay qoldim. 2. Astoydil harakat qilinsa, yiroq yer ham yaqin bo'ladi. 3. Bir so'z bilan aytganimizda, O'zbekistonimiz jannatmakon o'lkaga aylanib bormoqda. 4. Farzandlarimiz shaharda o'qisin deb, Buxoroga ko'chib kelishibdi.
A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 3, 4
16. Quyidagi so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rniga faqat bo'g'iz undoshi yoziladi?
...oyna ...oy, ...ar...asha, ...ardam...ayol, ...asharot...o'r, ...ay...ot, sha...ansho..., ...ush...ulq
A) 2tasida B) 3tasida C) 4tasida D) 5tasida
17. Quyidagi berilgan qaysi gaplarda tire(lar) tushirib qoldirilgan?
1) Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam o'qish, o'qiganda ham a'lo o'qish. 2. Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlari darrov ko'rdi poygakda bir kimsa gavdasi bilan eshikni to'sib, qaqqayib turardi. 3. Olita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi shu. 4. Mingbuloq o'zi yaxshi, suvi serob, lekin u qarovsiz.
A) 3, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3
18. Vositasiz to'ldiruvchi yasama fe'l bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan gapni aniqlang.
A) *Dangasaning nonni yeyishini ko'r.*
B) *Radiodan taralayotgan kuy qalblarga orom bag'ishlar edi.*
C) *Nonni ta'riflashga har qanday so'z o'zlik qiladi.*
D) *Bolalar ota-onani, ustozni hurmat qilishlari kerak.*
19. Ikki o'rinda mustaqil to'ldiruvchi, ikki o'rinda nomustaqil to'ldiruvchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
A) *Yer qor va yomg'ir namlarini yig'ib, kelgusi yil bosili uchun asrab turadi, o'zida kuch to'playdi.*
B) *Ona tilimizning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish uchun uning so'z boyligini bilishgina kifoya qilmaydi.*
C) *Bobom shirinso'zlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytdi.*
D) *Shoira xalqni og'ir sinovlar, ulug' o'zgarishlar jipslashtirishini, uning*

kuch-quadratini imtihon qilishini yozadi.

20. Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,
Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo.
Ushbu parchada qanday munosabatli so'z birikma(lar)ida tobe qism ham,
hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?
A) *boshqaruv* B) *bitishuv* C) *boshqaruv va bitishuv* D) *moslashuv va boshqaruv*
21. Turk xalqining zaiflasha boshlaganidan foydalanib qolgan dushman elchi jo'natib, turk xoqonidan uning eng yaxshi ko'rgan otini so'rattirdi.
Ushbu gapda aniqlovchilar qaysi gap bo'laklarga tobelangan?
A) *qaratqich aniqlovchi, ega, vositasiz to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi*
B) *sifatlovchi aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi, ega, vositasiz to'ldiruvchi*
C) *qaratqich aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi, ega, vositasiz to'ldiruvchi*
D) *qaratqich aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi, sifatlovchi aniqlovchi, ega*
22. Berilgan she'riy parchada nechta yasama so'z qo'llangan?
Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
Oyog'inga qo'yib yotay bosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
23. Berilgan she'riy parchadagi sodda yasama so'zlardan nechtasining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?
Bir kun ko'zlarimdan qochdi uyqular,
Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular...
Men seni esladim entikib, yonib...
A) 3 B) 2 C) 1 D) 4
24. Qaysi gap tarkibida fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?
A) *Bolaligimni sirdosh dugonalalr davrasida o'tkazmaganman.*
B) *Belanchakda yotgan go'dakning o'ksik yig'isi Oysha onaga ta'sir qildi.*
C) *Qizining doimiy ezgin xayollar og'ushida yurganini ko'rib, uning bir dardiga o'n dard qo'shildi.*
D) *Rahimjon korxona xodimlarining e'tiborsizliklari tufayli yuzaga kelgan qatro jiddiy muammolar haqida gapirdi.*
25. Abayning qaysi asari doston janriga mansub emas?
A) *"Iskandar"*
B) *"Azim rivoyati"*
C) *"Boy bolasi bilan kambag'al bolasi"*
D) *"Ma'sud"*
26. Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si tarkibiga kirmaydigan doston nomini aniqqlang.
A) *"Hasht behisht"* B) *"Iskandarnoma"* C) *"Maxzan ul-asror"* D) *"Xusrav va Shirin"*
27. "... birovga bosh egmadi. Imonini muhkam ushladi. O'ziga gard yuqtirmadi. Olamdan halol, pokiza yashab o'tdi. Laganbardorlik , birovga mutelik, hasadgo'ylik unga begona edi.
...Qalbinning parchasi singmasa agar,
Rozimasman, birov hadya etsa zar.
Bu satrlar ...ning she'rda chizilgan suratiga o'xshaydi..."
Ushbu parcha qaysi ijodkor haqida bitilgan?
A) *Zulfiya* B) *Saida Zunnunova* C) *Asqad Muxtor* D) *Oybek*
28. Kelgindi hukumat qutqusiga, va'dalarga uchib, o'z millati va xalqini bosqinchilarga ipsiz bog'lab berishdan toymaydigan kimsalar "ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar" deya tilga olingan she'r va uning muallifini aniqqlang.
A) *"Yong'in", Cho'lpon*
B) *"Mirrix yulduziga", Fitrat*
C) *"Xazon" Cho'lpon*
D) *"O'gut", Fitrat*
29. Hozirgacha ham o'z jozibasini yo'qotmagan "Yorqinoy" dramasi qaysi ijodkor qalamiga mansub?
A) *Furqat* B) *Cho'lpon* C) *Fitrat* D) *Abdulla Avloniy*
30. Nodiraning qaysi she'ri o'zbek adabiyotida muashshar janrining yuksak namunasi hisoblanadi?
A) *"Xating ishtiyogin savod ayladim"*
B) *"Fig'onkim, gardishi davron..."*
C) *"Marhabo"*

D) *"Firoqnoma"*

31. Qaysi shoir o'z g'azallaridan birida talmeh san'atidan mohirona foydalanib o'nlab buyuk shoirlarni tilga olar ekan Nizomiyni "voliyl mulki tariqat" (tariqat mulkining hukmdori) deya ulug'laydi?
A) *Munis* B) *Navoiy* C) *Huvaydo* D) *Ogahiy*
32. Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan qaysi asar tarixiy hisoblanadi?
A) *"Axloqy Muhsiniy" (Koshifiy)*
B) *"Ravz us-safo" (Mirxond)*
C) *"Badoe ul-vaqoe" (Vosifiy)*
D) *"Shoh va gado" (Hiloliy)*
33. "Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari pay,
Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy.
Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,
Tinmay yo'l uza qo'yg'an tuzoqqa".
Ushbu parchada tasvirlangan oshiqlar kim edi?
A) *Kuntug'mish va Xolbeka* B) *Farhod va Shirin* C) *Layli va Majnun*
D) *Suhayl va Guldursun*
34. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga tegishli ma'lumotni belgilang.
A) *Adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan musoviyattarafayn shaklida she'r yozgan.*
B) *Sharq musiqasining yozuvdagi ifodasi uchun "Tanbur chizig'i" deb nom olgan notalar tizimini kashf qilgan.*
C) *Uning "Sabog'a xitob" she'ri Istambulda yozilgan.*
D) *Otasi Akmal taxallusi bilan she'rlar yozgan.*
35. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar", - deya xushomadgo'yiligi evaziga chopon kiygan obraz uchraydi?
A) *"Mehrobdan chayon"* B) *"Advokatlik osonmi?"* C) *"Abulfayzxon"*
D) *"Sohibqiron"*
36. Qaysi baytlarda radif mutlaq qofiyadan keyin kelgan?
1. Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,
Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o'landan so'r.
2. Ko'rgali laling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,
Bu yamon andishaliqni go'yo qon tortadur.
3. Nigoro, sensizin mandin ne hosil,
Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil?
4. Ey orazi shams-u qamarim, netti, ne bo'ldi?
Ey tishlari dur-u gavharim, netti, ne bo'ldi?
A) 2, 3, 4 B) 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

BIOLOGIYA

37. Quyidagi berilgan genotiplarda qaysi biri 32 xildagi gametalar hosil qiladi?
1) *CcNnMmLLPpIi*; 2) *kkLijCCPpTteeYy*; 3) *qqYyXxiiDDSSpPEe*;
4) *DdXxqqRRPpGg*; 5) *YyGgKkIIsSPpwwUu*
A) 1,3 B) 2,4 C) 4,5 D) 3,5
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyli o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqqlang.
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipi organizmlar o'zaro chatishtirilgan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?
A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. Inversiya (I) va Inersiya (II) tushunchalariga mos ta'riflarni juftlang. (a) va (b) qanday nomlanadi?
a) xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi;
b) xromosoma ayrim qismining ortishi;
c) DNK bo'lagi genomning ma'lum joylariga kirishi;
d) o'simliklarni iqlimlashtirish;
A) I-a; II-c

- B) I-c; II-d
C) I-c; II-a
D) I-b; II-c
41. 1 molekula glukozaning C, H, O atomlari orasida to'plangan energiya miqdori mitoxondriyada necha molekula fosfat kislotani birkiritishga sarflanadigan energiya miqdoriga teng?
A) 35 B) 180 C) 70 D) 140
42. Drozofila pashshasi embrionidagi blastomerleri soni nazariy jihatdan uning tarkibidagi xromosomalari sonidan 1792 taga kam bo'lsa, blastomerleri sonini aniqlang.
A) 512 B) 256 C) 64 D) 128
43. Qaysi javobda o'simliklar sistematikasi kichik sistematik guruhdan katta sistematik guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan?
1) tokdoshlar; 2) terakbargli liftok; 3) magnoliyasimonlar; 4) ikki urug' pallalilar; 5) liftok; 6) magnoliyatoifalar; 7) yopiq urug'lilar; 8) qoqio'tdoshlar; 9) madaniy tok
A) 2,9,8,3,7 B) 5,2,1,4,7 C) 5,2,1,3,6 D) 2,5,1,4,6
44. Xantoria haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) avtotrof oziqlanadi
B) tarkibida murein uchraydi
C) xitin qobiqli hujayralari bor
D) vegetativ usulda ko'payadi
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirg'uloqsimonlarda urug'; 3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar; 5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biosfera (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.
1) lipa changdonida arxeosporaning hosil bo'lishi; 2) itbaliqning metamorfozi; 3) uglerodning biogen migratsiyasi; 4) yadrochada ribosomalarning shakllanishi; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovul kenja turining paydo bo'lishi; 7) o'tloqda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
A) a-2,5; b-3
B) a-1,6; b-3
C) a-5,7; b-3
D) a-2,4,6; b-7
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi
B) hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi
C) qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi
D) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminsiz rivojlanishi
48. G'o'za ontogenezida zigotadan murtaq rivojlanishi o'zgaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?
A) modifikatsion-fenotipik
B) ontogenetik-fenotipik
C) genotipik-ontogenetik
D) modifikatsion-genotipik
49. Odamning ko'payishiga xos bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlang.
A) Tuxumdonda bir juft bo'lib, tuxum hujayra va esterogen ishlab chiqaradi.
B) Homila bir hafta davomida tuxum yo'lida, ikkinchi haftadan boshlab bachadonda 9 oy rivojlanadi.
C) Bachadonda bo'shlig'iga o'tgan homilaning tashqi qismdan mahsus hujayralar birikmasi hosil bo'lib, u orqali homila bachadon devoriga birikadi.
D) X xromosomal spermatozoid va Y xromosomal tuxum hujayra qo'shilishidan erkak organizm rivojlanadi.
50. Odam yuragiga hos bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.
A) o'ng qorincha qisqarganda qon o'pka arteriyasiga chiqadi
B) chap qorincha qisqarganda qon o'pka venasiga chiqadi
C) o'ng bo'lmacha uch tavaqali klapan ochiladi
D) chap bo'lmacha qisqarganda ikki tavaqali klapan ochiladi
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmida A vitaminining yetishmasligi natijasida...
A) enterit kasalligi kelib chiqadi, epiteliy to'qimasining yangilanishi buziladi
B) miklar qonaydi, tishlar to'kiladi, traxeyaning shilliq pardasi yallig'lanadi
C) nerv tolalari falajlanadi, bronxlarning shilliq pardasi yallig'lanadi
D) qo'l-oyoq muskullari uvushib og'riydi, nerv tolalari falajlanadi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilymfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Lichinkasida kipriklari bor organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) jigar qurti; 2) exinakok; 3) gidra; 4) nereida; 5) oq planariya; 6) dengiz o'troq ko'p tukli chuvalchangi; 7) yomg'ir chuvalchangi
A) 1,4 B) 5,7 C) 2,3 D) 3,6
55. Butli o'rgimchak oyoq paypaslagichlariga xos xususiyatlarni aniqlang.
1) xitin po'st bilan qoplanmagan; 2) pastki jag'lar vazifasini bajaradi; 3) sezgir tukchalar bilan qoplangan; 4) yurishda ishtirok etadi; 5) yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 6) tuyg'u organi hisoblanadi
A) 2,3,6 B) 4,5 C) 1,3,5 D) 1,4
56. Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.
1) beluga; 2) qilquyruq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulkisi
A) 3,4,6 B) 2,5,6 C) 1,2,5 D) 3,4,5
57. Qushning qanday patlarida ilgakchalar mavjud emas?
1) par; 2) qoplag'ich patlar; 3) qoqish patlari; 4) momiq patlari; 5) boshqarish patlari
A) 3,5 B) 1,4 C) 2,4 D) 1,5
58. Qaysi organizmlarda katta va kichik qon aylanish doirasi yagona qorinchadan boshlanadi?
a) itbaliq; b) salamandra; c) manta; d) qizilto'sh; e) kvaksha; f) gavia; g) turkiston agamasi
A) a,c B) a,b,e C) d,f D) b,e,g
59. Penitsill va pichan batsillasi uchun umumiy bo'lmagan xususiyatlarni aniqlang.
A) Translyatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi, spora hosil qiladi.
B) Irsiy axborat DNK molekulasida joylashgan, hujayrasi qobiq bilan o'ralgan.
C) Membranasiz ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiya qatnashadi.
D) Prokariot organizm, irsiy axboroti faqat sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.
60. Eukariot hujayraga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) hujayra tarkibidagi mitoxondriya, xloroplast va yadro qo'shqavat membranaga ega; 2) sitoskelet hujayraning tayanch elementidir; 3) lizosomalarni hosil qiluvchi organoidlar membranasi tuzilishga ega; 4) o'simlik hujayrasining xitinsimon qobig'idagi maxsus teshikchalari orqali qo'shni hujayraning endoplazmatik to'r kanalchalari o'zaro tutashadi; 5) mitoxondriyaning kristallarida ko'plab fermentlar joylashgan
A) 2,5 B) 4,5 C) 3,5 D) 1,4
61. Meyoz natijasida hosil bo'ladigan hujayralarni aniqlang.
1) itsigakning mikrosporasini; 2) sigirquyruq tuxum hujayrasi; 3) do'lana

- kapalagining tuxum hujayrasi; 4) quyjonning tuxum hujayrasi; 5) g' o' za tunlamining gametasi; 6) gazandaning tuxum hujayrasi; 7) gatterianing spermatazoidi
A) 1,3,5 B) 2,4,6 C) 2,4,7 D) 3,5,6
62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarni aniqlang.
1) crossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyoj jarayonida xromosomalarning tasodifiy tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishining o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.
A) a-3; b-4,5 B) a-2,5; b-3 C) a-1,2; b-4,5 D) a-2,4; b-1,3
63. HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.
A) to'rtta nukleotid juftligini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazonga o'xshaydi
B) peptid bog' mavjud, to'rtta nukleotid juftligini taniydi
C) vodorod bog' mavjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash
D) DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi
64. Nastarin qaysi jihatlari bilan kamxastakdan farq qiladi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqliqi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarini novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) tanasining yog'ochlashganligi
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 2,6
65. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligini to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva; e) ko'sak meva
1) qozidastor; 2) Namangan; 3) Zarafshon; 4) gultish; 5) "Samarqand-3"; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) Namangan-34
A) a-3; b-1,4,6; c-8; d-7
B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9
C) a-1; b-4,5; c-8; d-7
D) a-3; c-8; d-6; e-9
66. Gullari qiyshiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.
1) o'tloq se bargasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenotsesus.
A) 2,4,5,6 B) 1,2,3,6 C) 1,3,4,5 D) 2,3,4,6
67. Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchali (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?
1) yantoq; 2) tok; 3) g' o' za; 4) partenotsesus; 5) burchoq; 6) liftok; 7) shirinmiya; 8) olma
A) a-6,8; b-1,5,7
B) a-1,2; b-4,5,7
C) a-2,3,8; b-1,4,5,7
D) a-2,4,6; b-5,7
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon
B) tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi
C) poyasida xitin moddasi uchraydi
D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi
69. Sho'radoshlar oilasiga kiradigan quyidagi o'simliklarni hayotiy shakli bilan juftlab ko'rsating.
a) saksovul; b) teresken; c) qizil lavlagi; d) Turkiston ismaloqi
1) bir yillik o't; 2) ikki yillik o't; 3) buta; 4) yarimbuta; 5) daraxt
A) a-5; b-4; c-2; d-1 B) a-5; b-4; c-2; d-3 C) a-3; b-1; c-2; d-4 D) a-4; b-5; c-1; d-2
70. Cho'chqa tasmasimon chuvalchangida 4ta so'rg'ichining bo'lishi, ichak bo'lmasligi, nerv sistemasi soda tuzilganligi, harakatlanish deyarli yo'qligi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?
A) biologik progress, umumiy degeneratsiya
B) umumiy degeneratsiya, biologik regress
C) idioadaptatsiya, biologik regress
D) biologik progress, aromorfoz
71. Ara to'tiqushi va kakaduning (a), galapagos arxepelagi har bir orolidagi vyurok turlarining (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?
A) a- allopatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi
B) a- simpatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi
C) a- simpatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi
D) a- allopatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi
72. Divergensiya (a) va konvergensiya (b) hodisalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) a-odam va boshqa hayvonlar gemoglobin zanjiridagi aminokislotalar tarkibidagi farq; b-ko'rshapalak va qushlarning qanoti
B) a-dengiz toshbaqasi va delfinlarda oyoqlarning eshkaksimon bo'lishi; b-boychachak turkumiga mansub 30 ga yaqin turlarning mavjudligi
C) a-ixtiozavr va sutemizuvchilardan delfinning tana tuzilishining o'xshashligi; b-delfinning oldingi oyog'i suzishga, oting oldingi oyog'i chopishga moslashganligi
D) a-xaltali krot, oddiy krot tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi; b-chigirka oyog'ining sakrashga, suv qandalasi oyog'ining suzishga moslashganligi

KIMYO

73. Oltinugurt saqlamaydigan oqsillarga... deyiladi.
A) protein B) proteid C) prolamin D) protamin
74. Propantriol-1,2,3 molekulasida tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) -5 B) -3 C) -4 D) -2
75. Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarni ajrating.
1) NaMnO₄; 2) H₂SO₄; 3) H₂S; 4) CrO₃; 5) NH₃; 6) HClO₄
A) 1,2,3 B) 1,2,4,6 C) 4,5,6 D) 1,2,5
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9600 ta uglerod atomi bor bo'lsa, adenin va timin nukleotidlar yig'indisini aniqlang. (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 1000 B) 1200 C) 1300 D) 800
77. 17,8 g α-aminokislotalardan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislotani toping.
A) α-amino 2- metilpropan kislota
B) glitsin
C) β-aminopropion kislota
D) α-aminopropion kislota
78. 59 g R-CCl₃ tarkibli gemigaloid uglevodorod suv bilan gidrolizlanganda 29,6 g karbon kislota olindi. Olingan karbon kislotani aniqlang.
A) sirka kislota
B) chumoli kislota
C) propion kislota
D) moy kislota
79. 0,8 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:41 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislotalarning 1 ta molekulasida tarkibidagi sp³-gibridlangan orbitalar sonini aniqlang.
A) 4 B) 12 C) 16 D) 8
80. 4f energetik qobiqchadan oldin qaysi energetik qobiqcha elektron bilan to'ladi?
A) 5p B) 6s C) 5d D) 6p
81. Laboratoriya sharoitida olingan azotdan O₂(1), NH₃(2) va NO (3) gazlarini tozalash uchun qanday reagentlardan foydalaniladi?
a) FeSO₄; b) H₂SO₄; c) qizdirilgan mis bo'lgi
A) 1-a, 2-c, 3-b
B) 1-a, 2-b 3-c
C) 1-c, 2-a, 3-b
D) 1-c; 2-b 3-a
82. Asetilening dimerlanishidan (kat. NH₄Cl va CuCl₂) hosil bo'lgan moddani aniqlang.
A) benzol B) polietilen C) butadiyen-2,4 D) vinilasetilen
83. Tarkibida 1 ta sp³-sp² bog' va 16 sp³ gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lar) nitrolanganda necha turdagi mononitrobirikma hosil bo'ladi? (yon zanjirining nitrolanishi hisobga olinmasin)
A) 6 B) 4 C) 10 D) 8

84. Mol nisbatlari 1:3:2 bo'lgan C, Si, Cu dan iborat aralashmani to'la eritish uchun avvaliga 98% li sulfat kislotadan 450 g, so'ngra 40% li NaOH eritmasidan X g sarflandi. X ni aniqlang.
A) 480 B) 540 C) 360 D) 450
85. Qaysi xloridlar suvda erimaydi?
A) $AgCl$, $FeCl_3$
B) $MgCl_2$, $CuCl_2$
C) $AlCl_3$, $PbCl_2$
D) $PbCl_2$, Hg_2Cl_2
86. 0,5 mol miqdorda olingan XY_2 va AY birikmalarda mos ravishda $13 \cdot N_A$ va $5 \cdot N_A$ tadana elektron bo'lsa, X ni toping. X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.
A) F B) C C) N D) O
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 2/3; 2/9
B) 2/5; 2/5; 1/5
C) 1/7; 3/7; 3/7
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. ${}^{246}_{Z}E \rightarrow x\alpha + 4\beta + {}^{A}_{90}Th$ yadro reaksiyasida Th ning neytronlar soni E ning protonlari sonidan 46 taga ko'p bo'lsa, noma'lum element tarkibidagi neytronlar sonini aniqlang.
A) 145 B) 130 C) 140 D) 152
89. 0,06 mol $CuSO_4 \cdot 3H_2O$ va $CuSO_4 \cdot 5H_2O$ aralashmasining to'liq dehidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Jami bog'lar soni 24 ta bo'lib, σ va π bog'lar soni ayirmasi 12 ga teng bo'lgan modda formulasi ko'rsating.
A) $(AlOH)_3(PO_4)_2$
B) $Al_2(SO_4)_3$
C) $Al_2(HPO_4)_3$
D) $(Al(OH)_2)_3PO_4$
91. $A_{(g)} + B_{(g)} \leftrightarrow 2C_{(g)}$ sistemada boshlang'ich moddalardan 3 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat ($K_m=4$) qaror topgandan so'ng moddalarning konsentratsiyalari yig'indisini (mol/l) aniqlang
A) 12 B) 6 C) 10 D) 8
92. $30,1 \cdot 10^{22}$ dona Na va $6,02 \cdot 10^{24}$ dona H atomlari tutgan Na_2SO_4 ning suvli eritmasi massasini (g) toping.
A) 136 B) 156,2 C) 125,5 D) 148,4
93. Tarkibida noma'lum modda saqlangan 120 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang. ($\rho=1,2$ g/ml deb hisoblansin)
A) 100/2 B) 100/3 C) 100/6 D) 100/4
94. 52 g $H_2SO_4 \cdot xSO_3$ tarkibli oleumni neytrallash uchun 1,12 mol KOH sarflandi. X ning qiymatini aniqlang.
A) 0,4 B) 0,1 C) 0,3 D) 0,5
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^{10} marta ko'p bo'lsa, eritmaning pOH qiymatini toping.
A) 10 B) 12 C) 5 D) 4
96. Xlorid kislota va xloridlarni aniqlash uchun qaysi kationning eruvchan tuzi ishlatiladi?
A) Cu^{2+}
B) Fe^{2+}
C) Na^+
D) Ag^+
97. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 33,4 g xlorat ionlari $2,4 \cdot N_A$ dona elektron biriktirib oldi. Qaytarilish mahsulotini toping.
A) Cl_2^0
B) ClO_2^-
C) Cl^-
D) ClO_4^-
98. Bir metal tuzining suvdagi eritmasi orqali 4 soat davomida 2,68 amper tok kuchi bilan o'tkazilsa, 8,4 g metal ajralib chiqadi. Tokka nisbatan unum 75% bo'lsa, metallning kimyoviy ekvivalentini aniqlang.
A) 32 B) 29 C) 26 D) 28
99. 14 g metall oksididan 27,75 g metal xloridi olingan. Shu metal hosil qilgan sulfid tuzining 0,3 mol massasini (g) aniqlang.
A) 26,4 B) 29,1 C) 21,6 D) 50,7
100. Kalsiy gidrokarbonat va kalsiy karbonat aralashmasi qattiq qizdirilganda olingan gazsimon mahsulotlar (suv bug'i kondensatsiyalanmagan) ishqor eritmasidan to'liq yutirilganda eritma massasi 39,7 g ga ortdi. Bunda 67,2 g natriy gidrokarbonat hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi kalsiy karbonat massasini (g) aniqlang.
A) 40,5 B) 50 C) 20 D) 30
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102. $MeSO_4$ ning 100 g 10% li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada $13,9$ g $MeSO_4 \cdot 7H_2O$ cho'kmaga tushdi. Kristallogidratdan kristalizatsion suv to'liq chiqarilsa necha gramm $MeSO_4$ qoladi?
A) 15,2 B) 3,6 C) 18 D) 7,6
103. $xMgCO_3 = yMgCO_3 + zMgO + zCO_2$ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi
C) $MgCO_3$ tarkibida qo'shimchalar borligini
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Azot, azot(II) oksid va azot(IV) oksiddan iborat 88 ml gazlar aralashmasi suvdan o'tkazilganda 50 ml gaz yutilmay qoldi. Yutilmay qolgan gazlar aralashmasiga 16 ml kislorod qo'shilganda aralashmaning hajmi 55 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi NO_2 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 50 B) 75 C) 25 D) 40
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N_2O larning hajmlari teng bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.
A) 3:8 B) 3:4 C) 2:1 D) 1:1
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.
1) $(NH_4)_2SO_4$; 2) K_2CO_3 ; 3) CH_3COONH_4 ; 4) $NaNO_2$; 5) $Cu(NO_3)_2$; 6) $(CH_3COO)_2Ca$
A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,3,4 D) 2,6
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 4 ta azot atomi massasiga teng alkenni aniqlang.
A) buten B) etilen C) penten D) propen
108. To'yingan bir atomli spirtning Na bilan reaksiyasidan olingan gaz shuncha miqdordagi spirtning yonishidan olingan gaz bilan 1:10 nisbatda bo'lsa, noma'lum spirtni aniqlang. (n.sh. da)
A) pentanol B) butanol C) etanol D) propanol